Muhiddinov Ozodbek Ikromjon o'g'li, Shakirova Gulrux Po'latjon qizi, Ozodbek Musayev	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING TURISTIK POTENTIALI UMUMIY TAVSIFI.....	783
Madaminova Sanobar Askarovna	
KICHIK BIZNES KORXONALARIDA EKSPORT MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISH KONSEPSIYASINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI.....	789
Boymirzayev Zokirjon Mashrabboyevich	
AHOLINING TURMUSH DARAJASI VA UNING KO'RSATKICHLARI.....	794
Sayitbayev Shermirza Datkamirzayevich	



KORXONA ASOSIY XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKT SIFATIDA AHAMIYATI.....	799
Yuldashova Yoqutoy Murodjon qizi, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich	
DAVLAT ISHTIROKIDAGI KORXONALARNI XUSUSIYLASHTIRISH JARAYONIDA KADRLAR SALOHIYATINI SAQLAB QOLISH VA RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARI.....	803
Bekchanov Ruslan Ambiyatovich	
PARALLEL KORPUS ASOSIDA INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA QISHLOQ XO'JALIK ATAMALARINING EKVIVALENTLIK XUSUSIYATLARI.....	807
Yulduz Xalilova Nasriddinovna	
KOLBASA VA GO'SHT MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQUARISHDA CHIQUINDISIZ ISHLAB CHIQUARISH ("ZERO WASTE") MODELINING ROLI: XORIJIY TAJRIBA VA O'ZBEKISTON SHAROITIDAGI AMALIY YO'NALISHLAR.....	810
Eshtemirova Anora Norboy qizi	
EKSPORTYO'R KORXONALARDA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI BO'YICHA QO'SHILGAN QIYMAT VA FOYDA SOLIG'INI TO'G'RI HISOBLANISHI TAHLILI VA ISTIQBOLLARI	814
Sobirova Xilola Rustam qizi	
O'ZBEKISTONDA TO'QIMACHILIK VA TIKUV-TRIKOTAJ SANOATI RIVOJLANISHINING MILLIY RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHDAGI O'RNI	819
Ikramova Taxmina Latifovna	
YANGI RIVOJLANAYOTGAN BOZORLARIDA HR QAROR QABUL QILISH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISHDA IQTISODIY TA'LIMNING ROLI	824
Dilfuza Shokirova	
UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR HISOBINI XALQARO BUXGALTERIYA STANDARTLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	833
Abdiev Mutolib Anvar o'g'li	



UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR HISOBINI XALQARO BUXGALTERIYA STANDARTLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH



Abdiev Mutolib Anvar o'g'li

Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

ORCID:0009-0004-7102-2327

E-mail: abdiyevmutolib@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada buxgalteriya hisobining xalqaro standartlariga muvofiq uzoq muddatli aktivlar hisobini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Muallif uzoq muddatli aktivlarning iqtisodiy mazmuni, ularni baholash va moliyaviy hisobotda aks ettirish jarayonlarini chuqur tahlil etadi. Maqolada xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (MHHS) va milliy buxgalteriya hisobining amaldagi qoidalari o'rtasidagi asosiy farqlar ko'rsatib berilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi — buxgalteriya hisobini takomillashtirish orqali korxonalarning moliyaviy natijalari haqida ishonchli va taqqoslanuvchan ma'lumotlar taqdim etish imkoniyatlarini kengaytirishdir.

Kalit so'zlar: uzoq muddatli aktivlar, moliyaviy hisobot, xalqaro standartlar, adolatli qiymat, amortizasiya, aktivlarni baholash, investisiyaviy resurslar.

Abstract. This article highlights the issues of improving the accounting of long-term assets in accordance with international accounting standards. The author provides an in-depth analysis of the economic essence of long-term assets, as well as the processes of their valuation and presentation in financial statements. The article outlines the key differences between International Financial Reporting Standards (IFRS) and the existing rules of national accounting. The main purpose of the study is to expand the possibilities of providing reliable and comparable information about the financial results of enterprises through the improvement of accounting practices.

Keywords: long-term assets, financial reporting, international standards, fair value, depreciation, asset valuation, investment resources.

Аннотация. В данной статье раскрываются вопросы совершенствования учета долгосрочных активов в соответствии с международными стандартами бухгалтерского учета. Автор всесторонне анализирует экономическую сущность долгосрочных активов, процессы их оценки и отражения в финансовой отчетности. В статье представлены основные различия между международными стандартами финансовой отчетности (МСФО) и действующими правилами национального бухгалтерского учета. Основная цель исследования — расширение возможностей предоставления достоверной и сопоставимой информации о финансовых результатах предприятий за счёт совершенствования бухгалтерского учёта.

Ключевые слова: долгосрочные активы, финансовая отчётность, международные стандарты, справедливая стоимость, амортизация, оценка активов, инвестиционные ресурсы.

KIRISH

Hozirgi kunda iqtisodiyotni isloh qilish va bozor munosabatlarini chuqurlashtirish jarayonida buxgalteriya hisobining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Moliyaviy hisobot ma'lumotlarining ishonchliligi va haqqoniyligi korxonaning investisiya jozibadorligi, kreditga layoqatliligi va bozordagi raqobatbardoshligiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. O'zbekistonda buxgalteriya hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHHS) muvofiqlashtirish bo'yicha islohotlar izchil amalga oshirilmogda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2020-



yil 24-fevraldagi PQ–4611-son¹li “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori mamlakatdagi korxonalar moliyaviy hisobotini jahon talablariga moslashtirishga qaratilgan muhim huquqiy hujjat bo‘ldi. [2]

Uzoq muddatli aktivlar korxona moliyaviy holatini shakllantiruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ular ishlab chiqarish jarayonida uzoq muddat ishtirok etadi, korxona uchun iqtisodiy foyda keltiradi va moliyaviy hisobotning asosiy qismi sifatida hisoblanadi. Shuning uchun ham, ularni hisobga olish va baholash jarayonida xalqaro talablarni to‘g‘ri tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq, amaldagi milliy buxgalteriya hisobining qoidalari ko‘p hollarda xalqaro standartlardan farq qiladi. Bu farqlar, ayniqsa, aktivlarning boshlang‘ich bahosini aniqlash, qayta baholash, amortizasiya siyosati va ularni moliyaviy hisobotda aks ettirish tartibida yaqqol namoyon bo‘ladi. [1] Shu nuqtai nazardan, ushbu maqolada uzoq muddatli aktivlar hisobi va baholanishining xalqaro standartlar asosida takomillashtirish yo‘llari ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, u milliy buxgalteriya tizimidagi mavjud qoidalarni MHHS bilan uyg‘unlashtirish bo‘yicha aniq amaliy takliflar ishlab chiqishga yo‘naltirilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Buxgalteriya hisobida uzoq muddatli aktivlar moliyaviy hisobotning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu aktivlarning to‘g‘ri baholanishi va ular bo‘yicha hisob yuritishning xalqaro talablarga muvofiq tashkil etilishi moliyaviy natijalarning haqqoniyligiga bevosita ta‘sir qiladi. Mavzu bo‘yicha xalqaro va mahalliy olimlar tomonidan ko‘plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, MHHS (IFRS) tizimida uzoq muddatli aktivlar hisobini belgilaydigan asosiy hujjatlar sifatida IAS 16 “Asosiy vositalar”, IAS 36 “Aktivlarning qadrsizlanishi” va IFRS 5 “Sotish uchun mo‘ljallangan uzoq muddatli aktivlar va tugatilgan faoliyat” standartlari qabul qilingan. Bu standartlar asosiy vositalarni qabul qilish, baholash, amortizasiyalash va hisobdan chiqarish bo‘yicha aniq me‘yorlarni belgilaydi.

Ayniqsa, IAS 16 standarti aktivlarning boshlang‘ich qiymatini shakllantirish, keyingi baholash usullari (tarixiy qiymat yoki qayta baholash modeli) va amortizasiya hisobini yuritish tartibini mukammal yoritadi. Xalqaro amaliyotda aktivlarning baholanishida adolatli qiymat (fair value) tamoyili ustuvor ahamiyatga ega bo‘lib, u bozordagi haqiqiy narxga mos ravishda aktiv qiymatini belgilashni nazarda tutadi. Bu yondashuv moliyaviy hisobotning xolisligini ta‘minlaydi va investorlar hamda kreditorlar uchun ishonchli ma‘lumot manbai bo‘lib xizmat qiladi.

Milliy darajada esa uzoq muddatli aktivlar hisobini tartibga soluvchi asosiy hujjatlar sifatida O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonuni (2016 y.), BHMS №5 “Asosiy vositalar”, BHMS №21 “Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarda buxgalteriya hisobining hisobvaraqlar rejasi va uni qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnoma” standartlari xizmat qiladi. Bu hujjatlarda aktivlarni qabul qilish va baholash tartibi belgilab berilgan bo‘lsa-da, ularda xalqaro andozalardagi kabi adolatli qiymat yoki “sotish uchun mo‘ljallangan aktivlar” toifasi aniq belgilanmagan. Ilmiy manbalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, milliy va xalqaro standartlar o‘rtasidagi farqlar buxgalteriya hisobining xolisligiga ta‘sir ko‘rsatadi. Bu, ayniqsa, uzoq muddatli aktivlarning amortizasiya siyosatini belgilash, ularni qayta baholash yoki sotish uchun tayyorlash jarayonlarida namoyon bo‘ladi. Shu bois, milliy hisob tizimini takomillashtirishda xalqaro tajriba, jumladan IFRS va IAS standartlari talablarini bosqichma-bosqich joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda buxgalteriya hisobining xalqaro va milliy standartlari asosida uzoq muddatli aktivlar hisobi bo‘yicha qiyosiy tahlil amalga oshirildi. Tadqiqotning ilmiy asosini tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, mantiqiy umumlashtirish va ilmiy induksiya usullari tashkil etdi. Tadqiqot ob’ekti sifatida O‘zbekiston korxonalarida amalga oshirilayotgan uzoq muddatli aktivlar hisobining amaldagi holati va xalqaro standartlar talablari tanlab olindi. Ma‘lumot manbalari sifatida quyidagilardan foydalanildi: O‘zbekiston Respublikasi qonun va me‘yoriy hujjatlari (BHMS №1, №5, №21); xalqaro standartlar IFRS 5, IAS 16, IAS 36; ilmiy maqolalar va xalqaro tahlil markazlari hisobotlari; amaliy misollar va buxgalteriya hisobotlari.

Tadqiqotning asosiy vazifalari quyidagicha belgilandi: uzoq muddatli aktivlar hisobining milliy va xalqaro standartlarini qiyosiy tahlil qilish; amaldagi milliy qoidalardagi kamchiliklarni aniqlash; IFRS talablarini milliy tizimga moslashtirish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqish; uzoq muddatli aktivlar bo‘yicha moliyaviy hisobotning xolisligini ta‘minlashga qaratilgan tavsiyalar berish. Metodologik jihatdan tadqiqot ilmiy manbalar tahlili va me‘yoriy hujjatlar solishtirmasiga asoslangan bo‘lib, natijalarni ilmiy xulosa va tavsiyalar bilan boyitishni nazarda tutadi.

1 <https://lex.uz/uz/docs/4746047>



TAHLIL VA NATIJALAR

Buxgalteriya hisobida uzoq muddatli aktivlarning to'g'ri baholanishi va ularning moliyaviy hisobotda haqqoniy aks ettirilishi korxona faoliyatining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot ob'ekti sifatida "Angren shakar" MChJ ma'lumotlaridan foydalanildi [7].

1- jadval. "Angren shakar" MChJda uzoq muddatli aktivlar o'zgarishlari jadvali (ming so'mda)

Ko'rsatkichlar	Kod	2022-yil boshida	2022-yil oxirida	2023-yil boshida	2023-yil oxirida	O'zgarish (2023-yil oxiri – 2022-yil oxiri)	% da
Asosiy vositalar (boshlang'ich qiymat)	010	355 515 961	362 051 217	362 051 217	472 841 446	+110 790 229	+30,6%
Amortizatsiya summasi	011	143 094 303	167 820 428	167 820 428	189 743 624	+21 923 196	+13,1%
Asosiy vositalarning qoldiq (balans) qiymati	012	212 421 658	194 230 789	194 230 789	283 097 822	+88 867 033	+45,7%
Nomoddiy aktivlar (boshlang'ich qiymat)	020	–	–	–	1 316 239	+1 316 239	–
nomoddiy aktivlar qoldiq qiymati	022	–	–	–	1 316 239	+1 316 239	–
Uzoq muddatli investisiyalar jami	040	–	–	–	4 713 800	+4 713 800	–
Uskunalar va jixozlar (olingan, o'rnatilmagan)	070	4 129 396	572 000	572 000	4 713 800	+4 141 800	+724%
Kapital qo'yilmalar	090	24 930 304	27 376 434	27 376 434	16 575 067	–10 801 367	–39,4%
I bo'lim bo'yicha jami	130	241 481 970	222 179 223	222 179 223	306 375 028	+84 195 805	+37,9%

Asosiy vositalar tahlili shuni ko'rsatadiki, 2022-yildagi 362,0 mlrd so'mdan 2023-yilda 472,8 mlrd so'mgacha o'sish kuzatilgan, ya'ni 30,6 %ga o'sgan. Asosiy vositalar amortizatsiyasi ham 13,1 %ga ko'paygan, bu esa faol ishlatish va asosiy vositalarning qartayishi jarayonini ko'rsatadi. Shu bilan birga, qoldiq qiymat 88,9 mlrd so'mga oshgan, bu yangi uskunalar sotib olinganini va modernizatsiya jarayonlari borligini anglatadi. Nomoddiy aktivlar esa ilgari mavjud bo'lmagan, 2023-yilda birinchi marta 1,3 mlrd so'm miqdorda hisobga olingan. Bu korxona axborot texnologiyalari, lisenziyalar yoki patentlarga sarmoya kiritganini ko'rsatishi mumkin. Uzoq muddatli investisiyalar 2023-yilda 4,7 mlrd so'mlik investisiya kiritilgan. Bu korxonaning moliyaviy quvvatining kengayishini anglatadi va kelgusida daromad manbai bo'lishi kutilmoqda. Kapital qo'yilmalar 2022-yil oxiridagi 27,4 mlrd so'mdan 2023-yilda 16,6 mlrd so'mga tushgan (–39,4 %). Bu qurilish va loyiha ishlarining muayyan qismini tugallaganlik natijasi bo'lishi mumkin. Jami uzoq muddatli aktivlar 2022-yilda 222,2 mlrd so'm bo'lgan jami aktivlar 2023-yilda 306,4 mlrd so'mgacha oshgan, ya'ni 37,9 % o'sish qayd etilgan. Bu o'sish asosan yangi asosiy vositalarni qo'shish, investisiyalar va nomoddiy aktivlarni joriy qilish hisobiga sodir bo'lgan.

"Angren Shakar" MChJning 2022–2023-yillar davomidagi uzoq muddatli aktivlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ishlab chiqarish salohiyati oshgan, chunki asosiy vositalar qiymati va ularning qoldiq qiymati sezilarli darajada o'sgan. Modernizatsiya va texnologiyalar joriy etilgan, bu esa nomoddiy aktivlar va yangi uskunalarining paydo bo'lishida ifodalangan. Investisiya faoliyati faollashgan, 4,7 mlrd so'mlik sarmoya kiritilgan. Kapital qo'yilmalarning kamayishi qisman loyihalarning tugallanishi yoki ularning asosiy vositalarga aylanishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Umuman olganda, korxona uzoq muddatli aktivlarning samarali boshqaruvini ta'minlagan va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlagan. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHHS) ko'ra, uzoq muddatli aktivlar boshlang'ich (tarixiy) qiymat yoki qayta baholangan qiymat asosida hisobga olinishi mumkin.

IAS 16 standartida bu ikki model quyidagicha tavsiflanadi: 1. Tarixiy qiymat modeli (Cost model) — aktiv uni sotib olish vaqtidagi narx va uni ish faoliyatiga tayyorlash uchun qilingan barcha zaruriy xarajatlar yig'indisi bo'yicha baholanadi. 2. Qayta baholash modeli (Revaluation model) — aktiv qiymati bozor narxiga yaqinlashtirilgan holda davriy ravishda qayta baholanadi va balansda adolatli qiymat bo'yicha aks ettiriladi. 5-sonli BHMS "Asosiy vositalar" standartiga ko'ra ham asosiy vositalar sotib olish, qurish yoki yaratish uchun qilingan xarajatlar bo'yicha qabul qilinadi. Biroq, milliy standartlarda qayta baholash modeli cheklangan holda qo'llaniladi va u faqat Moliya vazirligi tomonidan belgilangan hollarda amalga oshirilishi mumkin. Shu bois, milliy



hisob tizimida aktivlarning bozor qiymati va adolatli bahosini aniqlash amaliyoti etarlicha rivojlanmagan. Bu esa korxona aktivlarining haqiqiy iqtisodiy qiymatini aks ettirishda ma'lum kamchiliklarga sabab bo'ladi.

Amortizasiya siyosatini takomillashtirish zarurati. Amortizasiya — uzoq muddatli aktivning qiymatini foydalanish muddati davomida bosqichma-bosqich chiqim sifatida tan olish jarayonidir. IAS 16 standartiga muvofiq, amortizasiya usuli aktivning iqtisodiy foyda olish shakli bilan bog'liq bo'lishi kerak. Ya'ni, aktivdan foydalanish intensivligi uning amortizasiya ko'rsatkichini belgilaydi. O'zbekiston amaliyotida esa amortizasiya me'yorlari asosan davlat tomonidan belgilangan stavkalar asosida hisoblanadi. Bu holat korxonalarning faoliyat sohasi, ishlab chiqarish turi yoki aktivning real foydalanish muddatiga mos kelmasligi mumkin. Shu sababli, amortizasiya siyosatini takomillashtirishda korxonalarga muxtoriyat berish va xalqaro amaliyotdagi kabi amortizasiya usulini mustaqil tanlash imkoniyatini yaratish maqsadga muvofiq. Bu buxgalteriya hisobining reallik va xolislik tamoyillariga mos keladi. Aktivlarni qayta baholash va qiymat pasayishini hisobga olish. IAS 36 "Impairment of Assets" standartiga ko'ra, agar aktivning balansdagi qiymati uning tiklanishi mumkin bo'lgan qiymatidan yuqori bo'lsa, bunday farq "qiymat pasayishi" sifatida hisobga olinadi. Bu holatda aktivning balansdagi qiymati pasaytirilib, zarar moliyaviy natijalarda aks ettiriladi. Bu an'anaviy hisob yuritishda tushunarli bo'lsa-da, xalqaro bozor talabi doirasida moliyaviy hisobotning ishonch darajasini pasaytiradi. Shuning uchun aktivlarni qayta baholash jarayonini soddalashtirish va ichki baholash usullarini qonunchilik darajasida joriy etish maqsadga muvofiq.

Sotish uchun mo'ljallangan aktivlarning hisobi. IFRS 5 standartiga muvofiq, agar korxona aktivni sotishga qaror qilsa va bu sotish 12-oy ichida amalga oshirilishi mumkin bo'lsa, u holda aktiv "sotish uchun mo'ljallangan" deb hisoblanadi. Bunday aktiv bo'yicha amortizasiya to'xtatiladi va uning qiymati "adolatli qiymat minus sotish xarajatlari" asosida baholanadi. Milliy standartlarda esa bunday alohida toifa mavjud emas. Bu aktivlarning moliyaviy hisobotda noto'g'ri tasniflanishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun BHMSni takomillashtirishda "sotish uchun mo'ljallangan aktivlar" kategoriyasini joriy etish va ular uchun hisob yuritish tartibini belgilash tavsiya etiladi. Bu moliyaviy hisobotning xalqaro taqqoslanuvchanligini oshiradi.

2- jadval. Milliy va xalqaro standartlar solishtirmasi

Kriteriy	BHMS (O'zbekiston)	MHHS (IFRS)
Aktivni qabul qilish asosi	Sotib olish yoki qurish narxi bo'yicha	Tarixiy yoki qayta baholangan qiymat bo'yicha
Amortizasiya usuli	Davlat belgilagan stavkalar asosida	Iqtisodiy foydaga mos ravishda erkin tanlanadi
Qayta baholash	Faqat maxsus hollarda	Davriy ravishda, bozor qiymati asosida
Sotish uchun mo'ljallangan aktivlar	Aniq belgilanmagan	IFRS 5 talablariga muvofiq alohida hisobga olinadi
Moliyaviy hisobotda aks ettirish	Balansda umumiy holda	Alohida modda sifatida ("Sotish uchun mo'ljallangan uzoq muddatli aktivlar")

Yuqoridagi jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, milliy standartlarda uzoq muddatli aktivlar hisobini xalqaro talablarga moslashtirish zarurati yuqori darajada saqlanib turibdi. O'zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish jarayoni izchil amalga oshirilmoqda. Biroq amaliyotdagi milliy standartlar (BHMS) va xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (MHHS) o'rtasidagi farqlar hali ham sezilarli darajada saqlanib turibdi. Xususan, uzoq muddatli aktivlarni baholash, qayta baholash va amortizasiya siyosatini belgilash masalalarida milliy me'yorlar ko'p hollarda xalqaro andozalarga mos emas. Bu holat moliyaviy hisobotning shaffofligiga va xalqaro investorlar uchun ishonchli ma'lumotlar taqdim etilishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Amaliyotda ko'plab korxonalar aktivlarning adolatli qiymatini baholashda mustaqil baholovchilar xizmatidan foydalanmaydi, natijada ularning moliyaviy hisobotlarida aktivlarning haqiqiy bozor qiymati aks etmaydi. Bunday holatlarda aktivlarning real iqtisodiy salohiyati va ularning daromad keltirish qobiliyati haqida to'liq ma'lumot olish imkoni cheklanadi. Shuningdek, milliy amaliyotda "sotish uchun mo'ljallangan aktivlar" kategoriyasi bo'yicha aniq hisob qoidalari yo'qligi hisobotlarning xalqaro talablarga mos kelmasligiga sabab bo'lmoqda. Bu esa xalqaro bozorlarda faoliyat yurituvchi kompaniyalar uchun ma'lum qiyinchiliklar tug'diradi.

Buxgalteriya hisobini xalqaro andozalarga moslashtirish faqat normativ bazani yangilash bilan cheklanmasligi lozim. Bu jarayonda kadrlar malakasini oshirish, axborot texnologiyalarini joriy etish va boshqaruv tizimini modernizasiya qilish ham muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan, korxonalarda moliyaviy hisobotning xalqaro talablariga mosligini ta'minlash uchun quyidagi yo'nalishlarda islohotlar amalga oshirilishi maqsadga muvofiq: milliy va xalqaro standartlar o'rtasidagi qoidalarni uyg'unlashtirish; buxgalterlar uchun IFRS standartlari bo'yicha malaka oshirish kurslarini tashkil etish; moliyaviy hisobotlarda aktivlarning adolatli qiymatini aks ettirish uchun baholash institutini rivojlantirish; raqamli buxgalteriya tizimini joriy etish va



elektron hisobot shakllaridan foydalanishni kengaytirish. Bu choralar natijasida milliy buxgalteriya tizimi xalqaro standartlarga mos holda samarali ishlaydi va O'zbekiston iqtisodiyotining investitsiyaviy jozibadorligi oshadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, uzoq muddatli aktivlarning hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish O'zbekiston buxgalteriya tizimi uchun strategik ahamiyatga ega. Birinchi tavsiya — BHMS №5 “Asosiy vositalar” standartini xalqaro IAS 16 bilan uyg'unlashtirish lozim. Bu orqali aktivlarning baholanishi, amortizatsiyasi va qayta baholash tartibini aniq belgilash mumkin bo'ladi. Ikkinchi tavsiya — BHMS tarkibiga IFRS 5 talablariga mos “Sotish uchun mo'ljallangan aktivlar” toifasini kiritish kerak. Bu moliyaviy hisobotda aktivlarning aniq tasniflanishini ta'minlaydi. Uchinchi tavsiya — aktivlarning adolatli qiymatini baholash amaliyotini rivojlantirish, mustaqil baholovchilar institutlarini qo'llab-quvvatlash zarur. To'rtinchi tavsiya — korxonalar amortizatsiya siyosatini mustaqil ravishda belgilash huquqiga ega bo'lishi kerak, bu hisob siyosatidagi erkinlik va reallik tamoyillarini mustahkamlaydi. Beshinchi tavsiya — buxgalteriya va audit sohasida xalqaro standartlar bo'yicha kadrlar tayyorlash va qayta o'qitish dasturlarini kengaytirish zarur.

Oxirgi tavsiya — milliy moliyaviy hisobot shakllariga MHHS talablariga mos qo'shimcha bandlar kiritilishi, ayniqsa aktivlarning adolatli qiymatda aks ettirilishi ta'minlanishi lozim. Ushbu takliflarni amalga oshirish natijasida moliyaviy hisobotning xalqaro taqqoslanuvchanligi oshadi, investorlar uchun ishonchli ma'lumotlar bazasi yaratiladi, korxonalar faoliyatining samaradorligi haqida to'liq xulosa chiqarish imkoniyati kengayadi. Xulosa qilib aytganda, buxgalteriya hisobini xalqaro andozalarga moslashtirish — bu shunchaki texnik jarayon emas, balki mamlakat iqtisodiy tizimining shaffofligi va jahon iqtisodiyoti bilan integrasiya darajasini oshiruvchi muhim strategik vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Ўзбекистон Республикасининг “Бухгалтерия ҳисоби тўғрисида”ги Қонуни, №ЎРҚ–404, 2016-йил 13-апрел. <https://lex.uz/acts/90762> Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарори, PQ–4611, 2020-йил 24-феврал. <https://lex.uz/uz/docs/4746047>
2. БҲМС №1 “Бухгалтерия ҳисобининг умумий тамойиллари”, Адлия вазирлигида 2002-йил 27-декабрда 1203-сон билан рўйхатдан ўтган.
3. БҲМС №5 “Асосий воситалар”, 2003-йил 9-октябрда 114-сон билан тасдиқланган.
4. IFRS 5 “Non-current Assets Held for Sale and Discontinued Operations”.
5. IAS 16 “Property, Plant and Equipment”.
6. “Ангрен шакар” МЧЖнинг йиллик ҳисобот маълумотлари.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>